



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Saida	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	

INDIVIDUAL TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGINI PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV VA MATEMATIK-STATISTIK TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH

Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova

Mustaqil tadqiqotchi, p. f. d., (PhD), dotsent

ORCID-0009-0003-4133-1762

Annotatsiya: Mazkur maqolada individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan didaktik tizim samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari yoritilgan. Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy hamda refleksiv-metakognitiv mezonlar asosida kompleks baholangan. Tajriba-sinov ishlari aniqlashtiruvchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirilib, tajriba va nazorat guruhlar natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Yakuniy natijalar tajriba guruhida kasbiy tayyorgarlik darajasining sezilarli oshganligini ko'rsatgan. Natijalarning statistik ishonchliligi Pirsonning χ^2 mezonini asosida tekshirilib, χ^2 hisoblangan = 15,25, χ^2 kritik = 5,991 ekanligi aniqlandi. χ^2 hisoblangan > χ^2 kritik bo'lishi tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini hamda individual ta'lim asosida ishlab chiqilgan didaktik tizim samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: individual ta'lim, kasbiy faoliyatga tayyorlash, didaktik tizim, pedagogik tajriba-sinov, kasbiy tayyorgarlik, motivatsion-qadriyatli mezon, kognitiv-operatsion mezon, faoliyat-amaliy mezon, refleksiv-metakognitiv mezon, integrallashgan natijalar, Pirson χ^2 mezonini, matematik-statistik tahlil, bo'lajak pedagoglar.

Abstract: This article presents the content and results of a pedagogical experimental study aimed at determining the effectiveness of a didactic system designed to prepare students for professional activities in the context of individualized education. The students' level of readiness for professional activity was comprehensively assessed based on motivational-value, cognitive-operational, activity-practical, and reflexive-metacognitive criteria. The experimental study was conducted in three stages: diagnostic, formative, and final, with a comparative analysis of the results obtained from the experimental and control groups. The final results demonstrated a significant increase in the level of professional readiness among students in the experimental group. The statistical reliability of the results was assessed using Pearson's χ^2 test, yielding χ^2 calculated = 15.25 and χ^2 critical = 5.991. Since χ^2 calculated > χ^2 critical, the difference between the experimental and control groups was statistically significant, confirming the effectiveness of the didactic system developed on the basis of individualized education.

Key words: individualized education, preparation for professional activity, didactic system, pedagogical experiment, professional readiness, motivational-value criterion, cognitive-operational criterion, activity-practical criterion, reflexive-metacognitive criterion, integrated results, Pearson's χ^2 test, mathematical and statistical analysis, future educators.



Аннотация: В статье освещаются содержание и результаты педагогической экспериментально-опытной работы, проведённой с целью определения эффективности дидактической системы, направленной на подготовку студентов к профессиональной деятельности в условиях индивидуального обучения. Уровень готовности студентов к профессиональной деятельности комплексно оценивался по мотивационно-ценностному, когнитивно-операциональному, деятельностно-практическому и рефлексивно-метакогнитивному критериям. Педагогический эксперимент проводился на констатирующем, формирующем и заключительном этапах, результаты экспериментальной и контрольной групп подвергались сравнительному анализу. Итоговые результаты показали существенное повышение уровня профессиональной готовности студентов экспериментальной группы. Статистическая достоверность результатов проверялась с использованием критерия χ^2 Пирсона: χ^2 расч. = 15,25, χ^2 крит. = 5,991. Поскольку χ^2 расч. > χ^2 крит., установлено статистически значимое различие между экспериментальной и контрольной группами, что подтверждает эффективность разработанной на основе индивидуального обучения дидактической системы.

Ключевые слова: индивидуальное обучение, подготовка к профессиональной деятельности, дидактическая система, педагогический эксперимент, профессиональная подготовленность, мотивационно-ценностный критерий, когнитивно-операциональный критерий, деятельностно-практический критерий, рефлексивно-метакогнитивный критерий, интегрированные результаты, критерий χ^2 Пирсона, математико-статистический анализ, будущие педагоги.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini zamonaviy mehnat bozori talablari, ta'lim mazmunining individuallashuvi hamda talabning shaxsiy ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish asosida tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Oliy ta'lim jarayonida talabning tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchidan o'z ta'lim faoliyatini mustaqil rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va baholovchi faol subyektga aylanishi kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2].

Individual ta'lim talabning individual qobiliyati, ta'lim ehtiyoji, qiziqishi, mavjud tayyorgarlik darajasi va rivojlanish sur'atlarini hisobga olish imkonini beruvchi pedagogik yondashuv sifatida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda ta'lim jarayoni barcha talabalar uchun yagona mazmun va metodlar asosida emas, balki ularning individual ta'lim trayektoriyasi, o'quv imkoniyatlari va kasbiy rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi.

Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligi faqat nazariy bilimlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Mazkur tayyorgarlik kasbiy motivatsiya, bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llash, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarini baholash kabi o'zaro bog'liq komponentlarning integratsiyasi asosida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy tayyorgarlikni kompleks mezonlar asosida baholash va uning dinamikasini tajriba-sinov orqali aniqlash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi, ayniqsa, individual ta'lim sharoitida ishlab chiqilgan didaktik tizimning real ta'lim jarayonidagi samaradorligini empirik va matematik-statistik jihatdan asoslash zarurati bilan belgilanadi. Bunda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich hamda yakuniy natijalarini qiyoslash, kuzatilgan o'zgarishlarning tasodifiy yoki qonuniy xarakterga ega ekanligini aniqlash muhim metodologik vazifa hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov natijalari motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy hamda refleksiv-metakognitiv mezonlar asosida integrallashgan holda baholanib, olingan natijalarning statistik ishonchligi Pirsonning χ^2 mezoni yordamida aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi pedagogika, psixologiya va ta'lim metodikasi sohalarda keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarda ta'lim oluvchining faol subyekt sifatidagi mavqei, mustaqil ta'lim faoliyati, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya va tajriba asosida o'rganish jarayonlari kasbiy rivojlanishning muhim omillari sifatida qaraladi.

D. A. Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasida ta'lim tajriba, refleksiv kuzatish, abstrakt konseptualashtirish va faol tajriba bosqichlarining uzviyligi asosida amalga oshishi ta'kidlanadi [5]. Mazkur yondashuv individual ta'lim sharoitida talabning o'z tajribasini tahlil qilishi, undan nazariy xulosa chiqarishi va olingan bilimlarni yangi kasbiy vaziyatlarda qo'llashini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Talabning o'z ta'lim faoliyatini mustaqil boshqarishi masalasi B. J. Zimmerman tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim o'z-o'zini boshqarib o'qish jarayonini maqsad qo'yish, faoliyatni rejalashtirish, monitoring qilish, o'zini baholash va zarur hollarda o'quv strategiyalarini qayta tashkil etish jarayonlari bilan bog'laydi [6]. Ushbu

yondashuv individual ta'lim sharoitida talabani o'z ta'lim trayektoriyasini boshqaruvchi subyekt sifatidagi rolini kuchaytirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

P. R. Pintrich va E. V. De Groot tadqiqotlarida motivatsion omillar hamda o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining akademik natijalar bilan bog'liqligi asoslab berilgan ^[7]. Mazkur qarashlar kasbiy tayyorgarlikni baholashda motivatsion-qadriyatli komponentni alohida mezon sifatida ajratish zarurligini ko'rsatadi.

P. R. Pintrich o'z-o'zini boshqarib o'rganishni maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, motivatsiya, kognitiv strategiyalar va monitoring jarayonlarining o'zaro aloqadorligi sifatida izohlaydi ^[8]. Ushbu nazariy qarashlar individual ta'lim sharoitida talabalarning nafaqat bilimlarini, balki o'z ta'lim faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini ham rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

M. Puustinen va L. Pulkkinen tomonidan o'z-o'zini boshqarib o'rganishning turli modellari tahlil qilinib, ularning umumiy jihatlari sifatida maqsad qo'yish, monitoring, nazorat va refleksiya jarayonlari ko'rsatilgan ^[9]. Bu esa kasbiy tayyorgarlikni kompleks baholashda refleksiv-metakognitiv mezondan foydalanishning nazariy asoslarini kuchaytiradi.

P. H. Winne va N. E. Perry o'z-o'zini boshqarib o'rganishni baholash masalasida ta'lim faoliyatining ichki jarayonlarini diagnostika qilish muhimligini ta'kidlaydilar ^[10]. Ularning yondashuvda o'quv faoliyatini monitoring qilish va o'quv strategiyalarini boshqarish talabani ta'lim natijalarini belgilovchi muhim omillar sifatida qaraladi.

T. Sitzmann va K. Ely tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlil natijalari o'z-o'zini boshqarib o'rganish strategiyalarining ta'lim va kasbiy tayyorgarlik natijalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi ^[11]. Bu holat individual ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil faoliyati va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

A. Vrugt va F. J. Oort tadqiqotlarida metakognitsiya, maqsadga yo'nalganlik, o'quv strategiyalari va akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan ^[12]. Mazkur tadqiqot natijalari refleksiv-metakognitiv faoliyatning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi.

P. R. Pintrich tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvda motivatsiya va o'z-o'zini boshqarib o'rganish jarayonlarini kompleks baholash zarurligi asoslangan ^[13]. Mazkur yondashuv tadqiqotimizda kasbiy tayyorgarlikning motivatsion va kognitiv komponentlarini integrallashgan holda o'rganish uchun metodologik asoslardan biri sifatida qabul qilindi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy tadqiqotlar individual ta'lim, o'z-o'zini boshqarish, metakognitiv faoliyat va tajribaga asoslangan o'rganishning talabalar rivojlanishidagi ahamiyatini yetarlicha asoslagan. Biroq individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan didaktik tizim samaradorligini motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy va refleksiv-metakognitiv mezonlarning integrallashgan natijalari hamda matematik-statistik tahlil asosida kompleks baholash masalasi alohida tadqiqotni talab etadi. Mazkur maqolada aynan shu ilmiy-amaliy muammoni tajriba-sinov asosida o'rganish va olingan natijalarning statistik ishonchligini Pirson χ^2 mezoni orqali aniqlashga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini individual ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, tajribaviy o'rganish, o'z-o'zini boshqarib o'rganish va refleksiv-metakognitiv faoliyatning o'zaro integratsiyasi tashkil etdi. Tadqiqotda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash va ishlab chiqilgan didaktik tizimning samaradorligini baholash uchun pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat, diagnostik topshiriqlar, o'z-o'zini baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari talabalarning individual ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik tizimning samaradorligini amaliy jihatdan tekshirish maqsadida tashkil etildi. Tajriba-sinov jarayonida tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirildi hamda ularning boshlang'ich va yakuniy natijalari o'zaro qiyoslandi. Tadqiqotda jami 851 nafar talaba respondent sifatida ishtirok etdi. Shundan 426 nafari tajriba guruhi, 425 nafari nazorat guruhi tarkibiga kiritildi. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat pedagogika instituti, Namangan davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universiteti hamda Fan va texnologiyalar universitetida amalga oshirildi.

Guruhlarini shakllantirishda respondentlarning ta'lim yo'nalishi, boshlang'ich tayyorgarlik darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari kesimidagi vakilligi hisobga olindi. Bu tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki holatini imkon qadar muvozanatli shakllantirish va yakuniy natijalarda kuzatilgan o'zgarishlarni obyektiv qiyoslash imkonini berdi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari aniqlashtiruvchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda tashkil etildi.

Aniqlashtiruvchi bosqichda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlikning dastlabki darajasi aniqlandi. Bunda talabalarning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy hamda refleksiv-metakognitiv jihatlari diagnostika qilindi. Olingan dastlabki natijalar tajriba va nazorat guruhlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini qiyoslash uchun boshlang'ich mezon vazifasini bajardi.



Shakllantiruvchi bosqichda tadqiqotimizning III bobida ishlab chiqilgan individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan didaktik tizimi amaliyotga tatbiq etildi. Ta'lim jarayonida individual yondashuv, mustaqil ta'lim, interfaol metodlar, refleksiv topshiriqlar, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, individual ta'lim trayektoriyasini tashkil etish hamda innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanildi. Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan "Smartlesson.uz" elektron ta'lim platformasi va mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy yo'riqnoma talabalarning individual ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi amaliy vositalar sifatida qo'llanildi. Ular orqali talabalarning mustaqil ishlashi, o'z-o'zini nazorat qilishi, refleksiv tahlil olib borishi va o'quv natijalarini monitoring qilishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayta diagnostika o'tkazilib, talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasidagi o'zgarishlar aniqlandi. Dastlabki va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilinib, tayyorlik darajalarining dinamikasi belgilandi. Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini baholashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy hamda refleksiv-metakognitiv mezonlar asos qilib olindi. Har bir mezon bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar umumlashtirilib, talabalarning kasbiy tayyorgarligining yuqori, o'rta va past darajalari belgilandi. Mazkur mezonlarning integrallashgan natijalari tajriba-sinov samaradorligini umumiy holda baholash imkonini berdi. Tajriba-sinovning yakuniy natijalarini matematik-statistik jihatdan asoslash uchun Pirsonning χ^2 mezoni qo'llanildi. Statistik tahlilda tajriba guruhi uchun $n = 426$, nazorat guruhi uchun $n = 425$, baholash darajalari soni 3 ta, erkinlik darajasi $df = 2$, statistik ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0,05$ qilib belgilandi. Mazkur parametrlar asosida kritik qiymat χ^2 kritik = 5,991 etib olindi. Hisoblash natijasida χ^2 hisoblangan = 15,25 qiymat qayd etildi. Olingan natija: χ^2 hisoblangan = 15,25 > χ^2 kritik = 5,991 ekanligini ko'rsatdi.

Demak, tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlarni tasodifiy farq sifatida baholash mumkin emas. Shunday qilib, pedagogik tajriba-sinovning tashkil etilishi, mezonlar asosida olingan integrallashgan natijalar va matematik-statistik hisob-kitoblar individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan takomillashtirilgan didaktik tizimning samaradorligini empirik hamda statistik jihatdan baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining dastlabki – aniqlashtiruvchi bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi diagnostika qilindi. Baholash motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, faoliyat-amaliy hamda refleksiv-metakognitiv mezonlar bo'yicha amalga oshirilib, mazkur mezonlar natijalari integrallashgan holda umumlashtirildi. Aniqlashtiruvchi bosqichda tajriba guruhida 426 nafar, nazorat guruhida 425 nafar talaba ishtirok etdi. Olingan natijalar guruhlarining boshlang'ich tayyorgarlik darajasi o'zaro yaqin bo'lganligini ko'rsatdi.

1-jadval: Aniqlashtiruvchi bosqichda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajalari

№	Tayyorlik darajasi	Tajriba guruhi (n=426)	Nazorat guruhi (n=425)
1	Yuqori	70 (16,4%)	69 (16,2%)
2	O'rta	214 (50,2%)	214 (50,4%)
3	Past	142 (33,4%)	142 (33,4%)
	Jami	426 (100%)	425 (100%)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aniqlashtiruvchi bosqichda tajriba guruhining 16,4 foizi, nazorat guruhining 16,2 foizi yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan. O'rta darajadagi ko'rsatkichlar mos ravishda 50,2 va 50,4 foizni, past darajadagi ko'rsatkichlar esa har ikkala guruhda 33,4 foizni tashkil etgan. Mazkur natijalar tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich holati bir-biriga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi tayyorgarlik bo'yicha farq atigi 0,2 foizni, o'rta darajada 0,2 foizni tashkil etgan, past darajadagi ko'rsatkich esa teng bo'lgan. Shu sababli keyingi shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida kuzatilgan o'zgarishlarni ishlab chiqilgan didaktik tizim ta'siri bilan qiyosiy baholash uchun yetarli boshlang'ich sharoit mavjud bo'lgan. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida individual ta'limga asoslangan takomillashtirilgan didaktik tizim izchil ravishda joriy etildi. Ta'lim jarayonida talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, refleksiv topshiriqlardan foydalanish, kasbiy vaziyatlarni model-lashtirish, interfaol metodlar hamda innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, "Smartlesson.uz" elektron ta'lim platformasi va mustaqil ta'limni tashkil etishga mo'ljallangan uslubiy yo'riqnoma talabalarning individual ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vositalar sifatida qo'llanildi. Natijada talabalarning o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, mustaqil topshiriqlarni bajarish, o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish va refleksiv baholash imkoniyatlari kengaytirildi. Pedagogik tajriba-sinovning yakuniy bosqichida qayta diagnostika o'tkazilib, tajriba va nazorat guruhlarining kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi qayta baholandi.




2-jadval: Pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajalari

No	Tayyorlik darajasi	Tajriba guruhi (n=426)	Nazorat guruhi (n=425)
1	Yuqori	133 (31,2%)	89 (20,9%)
2	O'rta	226 (53,1%)	219 (51,5%)
3	Past	67 (15,7%)	117 (27,6%)
	Jami	426 (100%)	425 (100%)

Yakuniy natijalar tajriba guruhida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasida sezilarli ijobiy dinamika yuz berganligini ko'rsatdi. Xususan, yuqori darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 16,4 foizdan 31,2 foizgacha, ya'ni 14,8 foizga oshgan. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 16,2 foizdan 20,9 foizgacha, ya'ni 4,7 foizga oshgan. Past darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 33,4 foizdan 15,7 foizgacha, ya'ni 17,7 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich 33,4 foizdan 27,6 foizgacha, ya'ni 5,8 foizga kamaygan. Bu natijalar tajriba guruhida nafaqat yuqori tayyorgarlik darajasiga ega talabalar ulushi oshganini, balki dastlabki bosqichda past darajada bo'lgan talabalarning sezilarli qismi yuqoriroq tayyorgarlik darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

O'rta darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 50,2 foizdan 53,1 foizgacha, nazorat guruhida esa 50,4 foizdan 51,5 foizgacha o'zgargan. Bunda tajriba guruhidagi o'zgarishning mazmuni past darajadagi talabalar ulushining qisqarishi va yuqori darajadagi talabalar ulushining ortishi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Tajriba va nazorat guruhlarining qiyosiy tahlili. Aniqlashtiruvchi va yakuniy bosqich natijalarini qiyoslash individual ta'limga asoslangan didaktik tizimning tajriba guruhidagi natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. (Qarang: 1-rasm.) Demak, tajriba guruhida yuqori darajadagi tayyorgarlikning o'sishi nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori, past darajadagi tayyorgarlikning kamayishi esa sezilarli darajada katta bo'lgan.



1-rasm: Aniqlashtiruvchi va yakuniy bosqichlarda tajriba hamda nazorat guruhlarida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajalari dinamikasi

Mazkur diagrammada tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich hamda yakuniy natijalari qiyosiy ko'rinishda ifodalanadi. Diagramma tajriba guruhida yuqori darajadagi tayyorgarlikning o'sishi va past darajadagi tayyorgarlikning qisqarishi nazorat guruhiga nisbatan ancha yaqqol ekanligini ko'rsatadi. Matematik-statistik tahlil. Kuzatilgan ijobiy dinamikaning statistik jihatdan ishonchligini aniqlash maqsadida Pirsonning χ^2 mezonidan foydalanildi.

Tadqiqotda:

$$n_{\square} = 426, n_{\square} = 425,$$



bo'lib, baholash darajalari soni 3 ta, erkinlik darajasi esa:

$$df = (3 - 1) = 2$$

ni tashkil etdi. Ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0,05$ bo'lganda, kritik qiymat:

$$\chi^2_{\text{kritik}} = 5,991$$

ga teng. Yakuniy bosqichda olingan kuzatilgan chastotalar – tajriba guruhida 133, 226, 67, nazorat guruhida 89, 219, 117 – asosida hisoblangan qiymat:

$$\chi^2_{\text{hisoblangan}} = 15,25$$

ni tashkil etdi. Shunday qilib:

$$15,25 > 5,991.$$

H_0 – tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud emas, degan nolinch gipoteza. H_1 – tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud, degan muqobil gipoteza. Hisoblangan qiymat χ^2 hisoblangan = 15,25 kritik qiymat χ^2 kritik = 5,991 dan katta bo'lganligi sababli ($15,25 > 5,991$), H_0 rad etiladi va H_1 qabul qilinadi.

Xulosa

Bu tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Olingan statistik natija tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar tasodifiy xarakterga ega emasligini, balki individual ta'lim sharoitida qo'llanilgan didaktik tizim bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Shu tariqa, pedagogik tajriba-sinov natijalari individual ta'lim asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali pedagogik imkoniyatlarini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019. <https://lex.uz/ru/doc-passport/-4545884>
2. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. – Paris: UNESCO, 2016.
3. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. – 256 p.
4. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41. – No. 2. – P. 64–70. DOI: 10.1207/S15430421TIP4102_2.
5. Pintrich P. R., De Groot E. V. Motivational and Self-Regulated Learning Components of Classroom Academic Performance // Journal of Educational Psychology. – 1990. – Vol. 82. – No. 1. – P. 33–40. DOI: 10.1037/0022-0663.82.1.33.
6. Pintrich P. R. The Role of Goal Orientation in Self-Regulated Learning // Handbook of Self-Regulation / Eds. M. Boekaerts, P. R. Pintrich, M. Zeidner. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 451–502. DOI: 10.1016/B978-012109890-2/50043-3.
7. Puustinen M., Pulkkinen L. Models of Self-Regulated Learning: A Review // Scandinavian Journal of Educational Research. – 2001. – Vol. 45. – No. 3. – P. 269–286. DOI: 10.1080/00313830120074206.
8. Winne P. H., Perry N. E. Measuring Self-Regulated Learning // Handbook of Self-Regulation / Eds. M. Boekaerts, P. R. Pintrich, M. Zeidner. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 531–566.
9. Sitzmann T., Ely K. A Meta-Analysis of Self-Regulated Learning in Work-Related Training and Educational Attainment: What We Know and Where We Need to Go // Psychological Bulletin. – 2011. – Vol. 137. – No. 3. – P. 421–442. DOI: 10.1037/a0022777.
10. Vrugt A., Oort F. J. Metacognition, Achievement Goals, Study Strategies and Academic Achievement: Pathways to Achievement // Metacognition and Learning. – 2008. – Vol. 3. – No. 2. – P. 123–146. DOI: 10.1007/s11409-008-9022-4.
11. Pintrich P. R. A Conceptual Framework for Assessing Motivation and Self-Regulated Learning in College Students // Educational Psychology Review. – 2004. – Vol. 16. – No. 4. – P. 385–407.
12. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). The content of preparing students for professional activity in the process of individual education. Science and Innovation, 2(B12), 330–333.
13. Гайназарова Г. А. Методика организации индивидуального обучения по подготовке студентов к профессиональной деятельности // Экономика и социум. – 2025. – № 10-1 (137). <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-organizatsii-individualnogo-obucheniya-po-podgotovke-studentov-k-professionalnoy-deyatelnosti> (дата обращения: 10.08.2026).
14. G. A. Gaynazarova. Individual ta'lim va mustaqil ta'lim konsepsiyalarini integratsiyalashning oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati // Inter Education & Global Study. – 2025. – № 7. <https://cyberleninka.ru/article/n/individual-ta-lim-va-mustaqil-ta-lim-konsepsiyalarini-integratsiyalashning-oliy-ta-lim-muassasalari-talabalarining-kasbiy> (дата обращения: 10.08.2026).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.